

## PRAGMATIKADA INGLIZ TILINING TARJIMASINING O'RNI

*Eshtayeva Dildora Kaxarovna .*

*Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga  
o'rgatish milliy markazni o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Pragmatika (yun. – pragma - harakat) – muayyan nutq jarayonida belgilar va ularning ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi semiotikaning bir bo'limidir. Pragmatikaga bugungi kunda til vakillarining muayyan so'zlar va semantik konstruksiyalar yordamida o'z munosabatini bildirish va suhbatdoshning munosabatini tushunish darajasi, ya'ni mavjud vaziyatdan kelib chiqib, munosabat bildirish sifatida qaraladi.

Pragmatics (lit. - pragmatic-action) is a branch of semiotics that studies the relationship between signs and their participants in a particular speech process. Pragmatics today is viewed as the degree to which representatives of the language, using certain words and semantic constructions, express their attitude and understand the attitude of the interlocutor, that is, depending on the current situation, react.

Kishilar orasida muhim aloqa vositasi bo'lgan til nominativ, kommunikativ va ekspressiv vazifalarni bajarish qudratiga ega bo'lgan murakkab hodisadir. Tilning nominativ va ekspressiv funksiyasiga ega ekanligi, til elementlarida, ayniqsa, so'zda o'z aksini topadi.

Ma'lumki, tilda ikki xil ma'no: *denotativ* (atash) va *pragmatik* (qo'shimcha funksional, “situativ” ma'no) mavjud. Til birliklaridagi pragmatik ma'no turli nomlar bilan ataladi. CHunonchi, stilistik bo'yoq, qo'shimcha ma'no (rus. soznachenie), ekspressiv ma'no ottenkasi<sup>1</sup>. Mazkur ishimizda ushbu atamalarni o'z o'rnida qo'lladik.

So'z semantikasi faqat denotativ (atash) ma'nosi bilan cheklanib qolmaydi, balki unda pragmatik ma'no ham mavjud bo'ladi. Keyingi davrdagi ilmiy ishlarda til birliklariga xos denotativ ma'nolar umumtilshunoslikda atroflicha o'rganilganligi qayd etilgan<sup>2</sup>.

So'zning denotativ (atash) ma'nosi haqida turli darslik, o'quv qo'llanmalari, monografik tadqiqotlarda atroflicha fikr yuritilgan. Ammo, pragmatik ma'no til yaruslarining barchasida mavjudligiga qaramasdan, bu haqda hali etarlicha ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Tabiiyki, mavjud holat tilshunoslikda semasiologik

<sup>1</sup> Трубецкой В.А. Основы фонологии. –М.: 1960. –С. 21; Филипов А.В. К проблеме лексической коннотации // Вопросы языкознания, –М.: 1971. –№6. –С. 51-52; Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. –Тошкент. Ўқитувчи, 1992. –Б. 26; Миртожиев М. Товушлардаги маъно. –Тошкент. Ўзбекистон, 1982. –Б.12; Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. –Тошкент. Ўқитувчи, 1985. –Б. 44.

<sup>2</sup> Мамадалиева М. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти. Филол.фан.номз.дисс... автореф. –Тошкент. 1998. –29 б; Абдуллаев Ф. Чўзиқ унлиларнинг табиати тўғрисида // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент. 1959. –№3. –Б. 44-46.

yo‘nalishda tadqiqotlar olib borish zaruriyatini tug‘diradi va bu masalaga e‘tibor kuchaytirishni taqozo etadi.

Pragmatik ma‘no turlari, ularning so‘zni til va nutq elementi sifatida olingan holatlarida so‘z semantikasiga munosabati, shuningdek, fonetik vositalarda ifodalangan pragmatik ma‘nolar, ya‘ni nutq tovushlarining talaffuzi bilan bog‘liq uslubiy xususiyatlar, tilda mavjud supersegment fonetik vositalarda ifodalangan qo‘shimcha ma‘no “bo‘yog‘i” hamda morfologik birliklarda ifodalangan pragmatik ma‘nolar tadqiqi kabi qator masalalar tilshunoslikda hali etarli darajada o‘rganilgani yo‘q. Bu haqda turlicha qarashlar mavjud bo‘lib, ba‘zi olimlar so‘zning pragmatik ma‘nosi so‘z semantikasi komponentiga kirmaydi, degan fikrni bildirsalar, ayrim tilshunolar pragmatik ma‘no so‘z semantik strukturasi bevosita tarkibiy qismlardan biri deb qaraydilar<sup>1</sup>.

Shuningdek, pragmatika so‘z konnotatsiyasining bir qismi<sup>2</sup> degan qarashlar ham bor. Ilmiy adabiyotlarda esa “konnotatsiya denotatsiyaga ilova qilingan”<sup>3</sup>, “til birligining pragmatik ma‘no ifodasi, uning atrofini o‘rab olgan qo‘shimcha semalardir”<sup>4</sup>, degan ta‘riflar mavjud.

Konnotatsiya til birliklari semantikasiga kiruvchi semantik mavjudlik bo‘lib, u nutq sub‘ektining borliqni emotiv baholash va uslubiy belgilangan munosabatini ifoda etadi<sup>5</sup>. Tilshunoslikda konnotatsiyani tadqiq etishda xuddi shu tarzda pragmatik baho hisobga olinmoqda. Fikrimizcha, tilda doimiy (turg‘un) holatga ega bo‘lgan pragmatik axborot lingvistik qiziqish tug‘diradi. Ushbu fikrdan kelib chiqqan holda, pragmatika deganda, so‘zlovchi tomonidan til birligida mujassamlashgan quyidagi uch narsaning baholanishi tushuniladi: axborot predmeti bo‘lgan borliq, axborot mazmuni va adresat<sup>1</sup>.

Akademik V.V.Vinogradov tilning turli birliklarida real pragmatik ma‘lumotlar mavjudligini qayd etadi<sup>2</sup>.

“Pragmatika – hodisa yoki predmetni anglatib, so‘z, shu bilan birga, uning dinamik butunlikdagi, tarixiy borliqdagi aloqa va munosabatlarini ham bildiradi. U “borliqning bir bo‘lagini” va bu bo‘lakning mazkur borliqning boshqa unsurlariga nisbatan munosabatini tushunishni aks ettiradi. Bu munosabatlarning muayyan

<sup>1</sup> Говердовский В.И. История понятия коннотации // Филологическое науки. –М.: 1983. –№2. –С.81-86; Нейматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. –Тошкент. 1993. –32 б.

<sup>2</sup> Апресян Ю.Д. Коннотации как часть прагматики слова. Избранные труды. –М.: 1975; Баришникова К. О лингвистическом аспекте фоностилистических исследований. (Звуки, слоговый акцент, интонация). – Вильнюс. 1972. –С. 267-278.

<sup>3</sup> Миртожиев М. Товушлардаги маъно. –Тошкент. Ўзбекистон, 1982. –Б. 12; Абдуллаев Ф. Чўзиқ унлиларнинг табиати тўғрисида // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент. 1959. –№3. –Б. 44-46.

<sup>4</sup> Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. –Тошкент. Фан, 1995. –Б. 76; Мамадалиева М. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти. Филол.фан.номз.дисс...автореф. –Тошкент. 1998. –Б. 15.

<sup>5</sup> Лингвистический энциклопедический словарь. –М.: СЭ. 1990. –С. 236.

<sup>1</sup> Апресян Ю.Д. Коннотации как часть прагматики слова. Избранные труды. –М.: 1975. –С. 146.

<sup>2</sup> Виноградов В.В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. –М.: 1977. –С. 223.

davrdagi jamiyat va xalq tomonidan qanday anglashilgani va anglashilayotganini aks ettiradi”<sup>3</sup>.

Pragmatik ma’noning ta’siri bayon mazmuni va shakli uyg’unligida namoyon bo’ladi. Tarjima jarayonida pragmatik ma’noning ma’lum qismi tushib qolishi mumkin. Noytbertning fikricha, pragmatik ma’noning tarjimaga ko’chishi quyidagicha sodir bo’ladi [18, 73]:

1) tarjimaga ko’chishning yuqori darajasi (ilmiy-texnikaviy adabiyot va h.k.) buni quyidagi siyosiy nutq tarjimasi misolida ko’rib chiqamiz:

*“Biz yangi O‘zbekistonni xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz, degan ulug‘vor maqsadni o‘z oldimizga qo‘yganmiz. Bu borada “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori” degan yangi g‘oya kundalik faoliyatimizga chuqur kirib bormoqda. [2, 1]”*

*“We have set ourselves a gracious goal to build a new Uzbekistan together with our people. On this path, a new principle is being affirmed more and more deeply in our life, in accordance with which “society is initiator of reforms”;*

2) tarjimaga cheklovlar bilan ko’chish (boshqa til vakillari uchun informatsion-analitik materiallar tayyorlashda):

*“At the same time Mirziyoev noted important tasks in this direction: “We have set such a high goal as building a new Uzbekistan together with our people. Along this path, a new principle is being more and more profoundly asserted in our life. The initiator of reforms is society itself. The deputies should understand that all the activities should be aimed at serving the people [49]”;*

3) asliyat pragmatikasining deyarli tarjimaga ko’chmaslik holati (matn muayyan til vakillarigagina qaratilgan bo’lsa):

*“President: Society is initiator of reforms [49]”.*

Pragmatika nutqiy ta’sir natijasining hosil bo’lish ehtimolini belgilovchi vositalarni aniqlash imkonini beradi. Bunday vositalar qatoriga, masalan, pragmatik mazmuni aniqlashtiruvchi illokutiv fe’llar kiradi. Ushbu fe’llar nutqiy harakat tarkibida muhim rol o’ynaydi, ular muloqot maqsadi mazmuni va bajarilayotgan nutqiy harakatning illokutiv kuchini aniq va ochiq ko’rsatish xizmatini o’taydi. Masalan, “Kumushni ertaga kinoga olib boraman” gapining talaffuzi vositasida va’da berish nutqiy harakati kuzatiladiyu ammo ushbu harakat mazmunini aniq ifodalash uchun tarjimada illokutiv fe’lni ishlatsak ham bo’ladi. Muhtaram Prezidentimizning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida keltirilgan quyidagi fikrlar va uning ingliz tiliga amaliy tarjimasi ham tarjimonning illokutiv fe’lni qo’llash orqali pragmatik adekvatlikni ta’minlash mahoratini namoyish qilgan:

Evropa va rus tilshunosligida konnotatsiya, pragmatik ma’no terminlari I.A.Melchuk, L.I.Iordanskaya, A.K.Jolkovskiy, K.Byuler, A.V.Isachenko,

<sup>3</sup> Виноградов В.В. Кўрсатилган адабиёт. –С. 225.

R.Tokarskiy, E.Bartminskiy kabi etuk olimlarning ishlarida uchraydi. Konnotatsiya soʻzining evolyusiyasi va uning turlicha qoʻllanishi haqidagi taʼrifi A.V.Barovskaya ishlarida toʻliq yoritilgan. Ammo shuni alohida taʼkidlash lozimki, E.J.Uotli XIX asrning eng mashhur kitobi “Selection of synonyms” (Sinonimlar saylanmasi)ning soʻz boshida konnotatsiya soʻzining izohiga bevosita kiritiladigan leksik maʼnolarning qoʻshimcha modal, emotsional–ekspressiv elementlari, deb taʼriflagan. Rus tilshunosligida ham konnotatsiya termini izohiga turlicha fikrlar asosida yondashilgan. Jumladan, V.V.Vinogradov P.A.Pletnevning A.K.Grotga (1945 yil 29 sentyabr) yozgan maktubidan quyidagi iqtibosni keltiradi: “Men tilda mutlaq bir xil maʼnoga ega boʻlgan soʻzlar yoʻqligini aniqladim, chunki leksik maʼno bilan birgalikda har bir soʻz bilan miyaga asr, xalq, joy, hayot gʻoyasi keladi. Buning hammasini oddiy misol: “boroda” va “brada” asosida aniqladim. Birinchi soʻz oʻquvchi xayolida rusni, uning erkagi, savdogari, ruhoniysi koʻrinishida gavdalantiradi. Ikkinchi soʻz esa bizni yahudiy patriarxlar (oliy ruhoniyluk mansabi) davriga, sharq xalqlari hayotiga olib kiradi, chunki bu soʻz ongimizga cherkov (yaʼni diniy) kitoblaridan kirib qolib oʻrnashgan”<sup>1</sup>. Terminning bunday tafovutli boʻlishi tarixiy nuqtai nazardan aniq, bunga sabab bu termin turli xil fan doirasida yuzaga keladi. Garchi keyingi yillarda lisoniy birliklarning pragmatik aspektiga qiziqish ortgan boʻlsa-da, konnotatsiya tushunchasi turli fan doirasida turlicha talqin etilmoqda. Jumladan, uslubshunoslikda konnotatsiyaga uslubiy maʼno sifatida qaralib, uni emotsional boʻyoq bilan bogʻlab oʻrganiladi<sup>2</sup>. Tarjimashunoslikda konnotatsiyaga pragmatik maʼno sifatida qaraladi<sup>3</sup>. Maʼnoni sistem aspektida oʻrganuvchi semasiologlar konnotatsiyani ekspressiv boʻyoq, emotiv ifoda, deb baholaydilar. Psixologik yoʻnalishdagi tadqiqotlarda esa konnotatsiyaga semantik assotsiatsiyalar sifatida yondashiladi. Ushbu terminga qanday baho berilmasin, baribir, uning asosiy vazifasi nutq pragmatikasi bilan bevosita va uzluksiz bogʻlangan taʼsir etish funksiyasidir. Bu taʼsir ifodalanayotgan fikrning soʻzlovchi uchun qay darajada muhimligini adresatga etkazish jarayonida yuzaga chiqadi. Nutq subʼekti boʻlgan soʻzlovchining borliqqa munosabati – bu baholash munosabati boʻlib, unda kim nimani, nima uchun, qanday pozitsiyada turib, baholashi muhim sanaladi.

#### **Adabiyotlar roʻyxati:**

<sup>1</sup> Трубецкой В.А. Основы фонологии. –М.: 1960. –С. 21; Филипов А.В. К проблеме лексической коннотации // Вопросы языкознания, –М.: 1971. –№6. –С. 51-52; Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. –Тошкент. Ўқитувчи, 1992. –Б. 26; Миртожиев М. Товушлардаги маъно. –Тошкент. Ўзбекистон, 1982.

–Б.12; Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. –Тошкент. Ўқитувчи, 1985. –Б. 44.

<sup>2</sup> Мамадалиева М. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти. Филол.фан.номз.дисс... автореф. –Тошкент. 1998. –29 б; Абдуллаев Ф. Чўзиқ унлиларнинг табиати тўғрисида // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент. 1959. –№3. –Б. 44-46.

<sup>1</sup> Говердовский В.И. История понятия коннотации // Филологическое науки. –М.: 1983. –№2. –С.81-86; Нейматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. –Тошкент. 1993. –32 б.

<sup>2</sup> Апресян Ю.Д. Коннотации как часть прагматики слова. Избранные труды. –М.: 1975; Баришникова К. О лингвистическом аспекте фоностилистических исследований. (Звуки, слоговый акцент, интонация). –Вильнюс. 1972. –С. 267-278.

<sup>3</sup> Миртожиев М. Товушлардаги маъно. –Тошкент. Ўзбекистон, 1982. –Б. 12; Абдуллаев Ф. Чўзиқ унлиларнинг табиати тўғрисида // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент. 1959. –№3. –Б. 44-46. <sup>2</sup> Мамадалиева М. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти. Филол.фан.номз.дисс... автореф. –Тошкент. 1998. –29 б; Абдуллаев Ф. Чўзиқ унлиларнинг табиати тўғрисида // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент. 1959. –№3. –Б. 44-46.

<sup>1</sup> Говердовский В.И. История понятия коннотации // Филологическое науки. –М.: 1983. –№2. –С.81-86; Нейматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. –Тошкент. 1993. –32 б.

<sup>2</sup> Апресян Ю.Д. Коннотации как часть прагматики слова. Избранные труды. –М.: 1975; Баришникова К. О лингвистическом аспекте фоностилистических исследований. (Звуки, слоговый акцент, интонация). –Вильнюс. 1972. –С. 267-278.

<sup>3</sup> Миртожиев М. Товушлардаги маъно. –Тошкент. Ўзбекистон, 1982. –Б. 12; Абдуллаев Ф. Чўзиқ унлиларнинг табиати тўғрисида // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент. 1959. –№3. –Б. 44-46.